



TOSHKENT DAVLAT  
SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

# O'RGANILAYOTGAN MAMLAKATLARDA TIL VAZIRIYATI VA SIYOSATI

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

BOSH ILMIY-METODIK  
MARKAZ

2022



TOSHKENT

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI  
TASHKIL ETISH BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI TIL,  
TARJIMA VA KONSALTING MARKAZI**

**O‘RGANILAYOTGAN  
MAMLAKATLARDA TIL VAZIYATI  
VA SIYOSATI (ERON)**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

**TOSHKENT -2022**

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturi va o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi -** **Azimdjanova D.A.,**  
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi*

**Taqrizchilar -** **Mirzaxmedova H. V.,**  
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,  
“Eron-afg'on filologiyasi” kafedrasini mudiri, filologiya  
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Alimuhamedov R. A.,**  
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Mumtoz  
filologiya va manbashunoslik” kafedrasini mudiri, filologiya  
fanlari doktori*

## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>5</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI .....</b>	<b>13</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR .....</b>	<b>16</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI .....</b>	<b>23</b>
<b>V. GLOSSARIY .....</b>	<b>45</b>
<b>VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>57</b>

# I. ISHCHI DASTUR

## **I. ISHCHI DASTUR**

### **KIRISH**

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlari, 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son, 2020 yil 16 apreldagi "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4680-son hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797 sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovasion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovasion faoliyatni rivojlantirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o'z ichiga qamrab oladi:

### **I. Pedagogning professional faoliyatidagi innovatsiyalar**

1.1. Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish.

1.2. Ilmiy va innovasion faoliyatni rivojlantirish.

1.3. Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish.

### **II. Pedagogning axborot va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish**

2.1. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish.

2.2. Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili.

### **III. Mutaxassislik fanlari**

3.1. O'rganilayotgan mamlakatlarda til vaziyati va siyosati.

3.2. Texnologiyaga asoslangan til o'qitish.

3.3. Tadqiqotlar olib borishda lingvistik metod va yondashuvlar.

3.4. Kommunikativ tilshunoslik va til kompetensiyalari.

3.5. O'rganilayotgan mamlakatlar tililarini o'qitishda madaniyatlararo muloqot.

### **IV. Malakaviy attestatsiya**

## **Kursning maqsadi va vazifalari**

Oliy ta'lim **muassasalari** pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarni innovasion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek, ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Fanni o'qitishdan maqsad**—tinglovchilarda Eron Islom inqilobiga qadar va undan keyingi davrlardagi til vaziyatining o'ziga xos xususiyatlari, hozirgi

davrda tilda yuz berayotgan jarayonlarni o'rganishni hamda tilning rivojlanishi va o'zgarishiga ta'sir etadigan lingvistik va ekstralingvistik omillarni tushuna yetish bilan tanishtiradi. "O'rganilayotgan mamlakatda til vaziyati va siyosati (Eron)" modulining **asosiy vazifalari** quyidagilar:

- Puristik omillarning til xolatiga ta'siri hamda tilning lug'at tarkibidagi o'zgarishlarda islomiy mafkuraning rolini o'rganish;
- Fors tili lug'at tarkibidagi neologizatsiya yo'llarni ko'rib chiqish;
- Ijtimoiy – siyosiy kataklizmlar davrdagi holatini o'rganish;
- Islom inqilobidan keyin Eronda olib borilgan til siyosatining moxiyatini o'rganish;
- Eronning uchta til akademiyalari faoliyati haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- Eron Islom Respublikasida fors tilining integral omil sifatida rolini ko'rsatish.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar**

"O'rganilayotgan mamlakatda til vaziyati va siyosati (Eron)" moduli bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

- o'rganilayotgan mamlakatdagi sotsiolingvistik vaziyatni;
- o'rganilayotgan mamlakatning etnik tarkibi va ularning tilini;
- til vaziyati tushunchasini;
- til vaziyati turlari va ularning farqlarini;
- o'rganilayotgan mamlakatdagi etnolingvistik vaziyatini;
- Bilingvizm va polilingvizmni;
- Davlat tili tushunchasi, ya'ni o'rganilayotgan mamlakatda olib borilayotgan til siyosatini;
- Jamiyatda til vaziyatini xarakterlovchi omillarni;
- o'rganilayotgan mamlakatda til vaziyatini me'yorga solishda Til akademiyalarining o'rnini;
- savodsozlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda davlat tomonidan o'tkazilayotgan til bilan bog'liq ta'lim tizimidagi islohotlarni;
- OAV va televideniening mamlakatdagi til vaziyatiga ta'sirini;
- Xalqaro mehnat taqsimotda Sharq mamlakatlarining roli va o'rganilayotgan mamlakatdagi til vaziyatiga ularning ta'sirini;



- til vaziyatining rivojlanish tendensiyalarini;
- til vaziyatining rivojlanish omillari va tarixiy-madaniy sabablarini;
- o'rganilayotgan mamlakatning lingvogeografik va lingvoareal tavsifini;
- o'rganilayotgan mamlakat adabiy tilining maishiy - so'zlashuv tili va dialektlardan farqini;
- o'qitilayotgan til lug'at boyligining o'sishda turli ilmiy tashkilotlarning o'rmini tasviri haqidagi **bilimlarga** ega bo'lishi lozim.

#### **Tinglovchi:**

- o'rganilayotgan mamlakatdagi til vaziyati bo'yicha ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va tizimlashtirish;
- o'rganilayotgan tilni isloh qilish yo'lida olib borilgan harakatlar, ularning faoliyatiga umumiy baho berish;
- globallashtirish sharoitida o'rganilayotgan sharq tilining umumiy holati bo'yicha kechayotgan o'zgarishlarni tushuna olish **malakalarini egallashi** zarur;

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“O'rganilayotgan mamlakatda til vaziyati va siyosati (Eron)”moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- darslarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“O'rganilayotgan mamlakatda til vaziyati va siyosati (Eron)”moduli mazmuni o'quv rejadagi mutaxassislik o'quv modullarining barcha sohalari bilan uzviy bog'langan holda professor-o'qituvchilarning umumiy kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

**Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Mazkur fanni ilmiy va amaliy jihatdan yetarli manbalar asosida o'rgangan tinglovchilar mavzuni boshka gumanitar fanlar bilan uzviylikini tahlil qila oladi, gumanitar fanlar tizimidagi muassasalarda ichki va tashqi aloqa organlarida mutaxassis sifatida kasbiy kompetentlikka ega bo'lib, o'z vazifalarni bajara oladilar.

**Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		jami	jumladan	
			Nazariy	Amaliy mashg'ulot
1.	1 mavzu Til vaziyati, ularning turlari, til vaziyatining o'zgarishda ta'sir etuvchi omillari	2	2	
2.	2 mavzu. Eronda etnolingvistik vaziyat masalalari.	2		2
3.	3-mavzu. Islom inqilobiga qadar va keyin fors leksikasining shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatitlari.	2		2
4.	4- mavzu. Eronning uchta Akademiyasi faoliyati			
	2	2		

**Jami:****8****2****6**

## I. O'QUV MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### 1-mavzu. Til vaziyati, ularning turlari, til vaziyatining o'zgarishda ta'sir yetuvchi omillari

Til va etnolingvistik vaziyat tushunchasi. Til va etnolingvistik vaziyat o'rtasidagi farqlar. Til vaziyatining turlari. Til vaziyatining o'zgarish omillari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

### 2-mavzu. Eronda etnolingvistik vaziyat masalalari

Erondagi tillar. Ularning mamlakat hayotidagi roli. Fors tili leksikasi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari. Fors tilining funksional lingvistik vaziyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, klaster, diagramma, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

### 3-mavzu. Islom inqilobiga qadar va keyin fors leksikasining shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatitlari. Eronning uchta Akademiyasi faoliyati

Adabiy tilni xalq-so'zlashuv tili bilan yaqinlashuvi. Tilning lug'at tarkibini o'sishi va boshqa tillardan o'zlashishi. Fors tili leksikasining rivojlanishida so'z tuzilishining roli. Ko'rilayotgan davrda fors tili terminologik leksikasini shakllanish xususiyatlari.

Fors tili lug'at tarkibini rivojlanish yullari. Forscha so'z yasalişining asosiy usullari. Fors tili lug'at tarkibini rivojlanishi yo'llari. Forscha so'z yasalişining asosiy usullari. Tilning zamonaviylashtirish shart-sharoitlari. Leksik fondining rivojlanishining asosiy yo'nalishlari. Zamonaviy fors tili xususiyatlari, belgilari va hodisalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, munozara, keys, o'z-o'zini nazorat.*

### 4-mavzu. 20-asrgacha lingvistik purizmga urinishlar

Ma'ruza da Eronda purizm oqimlarning paydo bo'lish tarixi ochib beriladi. Qadimgi davrda va hozirgi bosqichlarida Eronda purizmning xususiyatlari yeritiladi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, munozara, keys, o'z-o'zini nazorat.*

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, munozara, keys, o'z-o'zini nazorat.*

## **O'qitish shakllari**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko'rilayotgan savollarga yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI**

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

### Klaster

Klaster - bu asosiy semantik birliklarni ajratib ko'rsatadigan, ular orasidagi barcha aloqalarni belgilash bilan diagramma shaklida o'rnatiladigan axborotni tashkil etishning grafik shakli. Bu o'quv materialini tartibga solish va umumlashtirishga yordam beradigan tasvir.

Birinchi bosqichda faollashuv, barcha jamoa a'zolarini jarayonga jalb qilish mavjud. Maqsad - berilgan mavzu bo'yicha allaqachon mavjud bo'lgan bilimlarni ko'paytirish, assotsiativ massiv yaratish va ularga javob topmoqchi bo'lgan savollarni berish. Tushunish bosqichida ma'lumotlar bilan ishlash tashkil etiladi: matnni o'qish, olingan faktlarni o'ylash va tahlil qilish. Aks ettirish bosqichida olingan bilimlar ijodiy faoliyat natijasida qayta ishlanadi va xulosalar chiqariladi. Klasterni qabul qilish har qanday bosqichda qo'llanilishi mumkin

- Qiyinchilik bosqichida tinglovchilar mavzu bo'yicha barcha mavjud bilimlarni, ularning taxminlari va uyushmalarini bayon qiladilar va qayd etadilar. Bu mavzuni o'rganishni boshlashdan oldin tinglovchilarning ma'lumotni qabul qilish va aks ettirish motivatsiyasini faollashtirishga xizmat qiladi.
- Tushunish bosqichida klasterdan foydalanish o'quv materialini tuzishga imkon beradi.
- aks ettirish bosqichida klaster usuli olingan bilimlarni tizimlashtirish funksiyasini bajaradi.

Klaster usulidan deyarli barcha mashg'ulotlarda, turli mavzularni o'rganishda foydalanish mumkin.

Ushbu usulni qo'llashda ish shakli mutlaqo har qanday bo'lishi mumkin: individual, guruh va jamoaviy. U belgilangan maqsad va vazifalarga, o'qituvchi va jamoaning imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Bir shakldan ikkinchisiga oqish joizdir. Masalan, qo'ng'iroq bosqichida bu har bir tinglovchi o'z klasterini yaratadigan individual ish bo'ladi. Yangi bilimlar paydo bo'lganda, shaxsiy rasmlar asosida va darsda olingan bilimlarni hisobga olgan holda, o'tgan materialni birgalikda muhokama qilishda umumiy grafik sxema tuziladi. Klaster sinfda ishni tashkil etish usuli sifatida va uy vazifasi sifatida ishlatilishi mumkin



etishlari zarur bo'lgan hollarda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida qo'llaniladi. Ba'zan ma'ruza-munozaralar ham qo'llaniladi, agar ma'ruzachi

**Munozara usuli** - bu o'quv dasturining nazariy savollarini maxsus dasturlashtirilgan bepul muhokama qilish, odatda savol bilan boshlanadi. Munozara usuli darslarning guruh shakllarida, munozarali seminarlarda, amaliy mashg'ulotlarda, topshiriq natijalarini muhokama qilish uchun suhbatlarda, talabalar o'zlarini ifoda

materialni taqdim etishda tinglovchilarga qisqa va tezkor javoblarni talab qiladigan individual savollar bilan murojaat qilsa. Ma'ruzaning to'liq ma'nosidagi munozarani ochib bo'lmaydi, ammo munozarali savol birdaniga tinglovchilardan bir nechta turli xil javoblarni keltirib chiqardi, bu jamoaviy fikrlashning psixologik muhitini va munozara savoliga javob beradigan ma'ruzachining fikrlarini diqqat bilan tinglashga tayyorlikni yaratadi



**"Aqliy hujum" usuli** "Aqliy hujum", "aqliy hujum" bu talabaning berilgan savolga har qanday javobi qabul qilinadigan usuldir. Bir vaqtning o'zida bildirilayotgan fikrlarni baholash emas, balki hamma narsani qabul qilish va har kimning fikrini doskaga yoki qog'ozga yozib qo'yish muhimdir. Ishtirokchilar o'zlarining javoblarini oqlashlari yoki tushuntirishlari shart emasligini bilishlari kerak. Aqliy hujum - bu muammoni hal qilish uchun g'oyalarni yaratishning oson usuli. Aqliy hujum paytida ishtirokchilar o'zaro fikr almashadilar, chunki har kim boshqalarning g'oyalarini rivojlantirishi mumkin

**Loyihaning ommaviy taqdimoti.** Taqdimot - bu muhim ma'lumotlarni shaxsiy suhbatda ham, jamoat oldida so'zlashda etkazishning eng samarali usuli. Multimedia uskunalari yordamida slayd-prezentatsiyalar sizga o'rganilgan material mazmunini samarali va vizual tarzda taqdim etish, ibratli ma'lumot olib boruvchi xabarni ajratib ko'rsatish va tasvirlash hamda uning asosiy tarkib nuqtalarini ko'rsatish imkonini beradi. Interfaol elementlardan foydalanish o'qituvchining kasbiy faoliyatining bir qismi bo'lgan ommaviy nutq samaradorligini oshirishga imkon beradi. 41. Kichik guruhlarda ishlash Bu eng ommabop strategiyalardan biridir, chunki u barcha talabalarga ishda qatnashish, hamkorlik, shaxslararo muloqot ko'nikmalarini mashq qilish imkoniyatini beradi (xususan, faol tinglash, umumiy fikrni rivojlantirish, kelishmovchiliklarni hal qilish qobiliyati).

## III. NAZARIY MATERIALLAR



### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### TIL VAZIYATI VA ETNOLINGVISTIK VAZIYAT

##### Reja

1. Til va etnolingvistik vaziyat tushunchasi
2. Til va etnolingvistik vaziyat o'rtasidagi farqlar
3. Til vaziyatining tiplari (turlari)

**Tayanch so'zlar va iboralar:** Etnos, etnolingvistik vaziyat, til vaziyati, umumdavlat, rasmiy, kundalik hayot tarzi, ijtimoiy tabaqa, polietnik muomala, monoetnik davlatlar, bilingvizm, diglossiya, umumdavlat, mintaqaviy, mahalliy.

Etnoslar yig'indisi va unga biriktirilgan tillar hamda mamlakat ichkarisidagi hududiy taqsimlanishni qamrab olgan etnolingvistik vaziyat tushunchasidan farqli o'laroq, til vaziyati tushunchasi ijtimoiy-funksional (vazifa, xizmat qilish) tizim sifatida mamlakatda muomala vazifasini bajaruvchi tillar yig'indisi deb qaraladi. Mazkur tushuncha ijtimoiy o'zaro aloqa sohasi va muomalaning turli darajasi bo'yicha tillarni taqsimlanishini aks ettiradi. Har bir davlatda u yoki bu tilning kommunikativ hujjatlarda qo'llash xususiyati bo'yicha ikki muomala darajasiga, ya'ni umumdavlat rasmiy va kundalik hayot tarzida qo'llaniladigan tillarga ajratiladi. Binobarin, mazkur darajada qo'llaniladigan tillar rasmiy va kundalik hayot tarzi kategoriyasiga kiradi. Tillarning bunday funksional (xizmat qilish) taqsimoti ularning ijtimoiy tabaqa (qatlam) va guruhlar bo'yicha taqsimlanishi bilan bog'liq. Chunonchi, turli xalqlardan tashkil topgan jamiyatdagi rasmiy tildan ko'proq yuqori ijtimoiy tabaqa va ziyolilar foydalansalar, kundalik (jonli) ishlatiladigan til – asosiy omma muomilasidagi yagona vosita hisoblanadi.

Shunday qilib, agar "etnolingvistik vaziyat" atamasi tillarning hududiy taqsimlanishini, ularning o'zaro "gorizantallik bo'yicha" munosabatlarini bildirsa, "til vaziyati" atamasi ularning ijtimoiy tabaqa va ijtimoiy kengligi taqsimoti, ya'ni vertikalligini, guruhlar o'rtasidagi o'zaro bo'linish, jamiyatning ijtimoiy va kasb-hunar guruhleri o'rtasidagi taqsimotni bildiradi.

Undan tashqari, qiyoslanayotgan tushunchalar o'rtasida sezilarli va qator ancha xususiy farq ham mavjud:

1. Ular avvalo, o'z xajmiga ko'ra bir-biriga to'g'ri kelmaydi: "til vaziyati ancha keng bo'lib, u nafaqat mamlakatning polietnik muomalasida qo'llaniladigan tillar yig'indisini, balki mamlakatning monoetnik yoki bir milliy mintaqadagi ko'p millatli davlatning aniq milliy tili mavjudligi shakllarining yig'indisini qamrab oladi. Masalan, monoetnik davlatlarda kamida ikkita aloqa darajasi (muomala vositasi) mavjud, lekin, faqat muomalaning rasmiy va kundalik hayot (jonli til) vositasi rolini adabiy va so'zlashuv tili bajaradi.

2. Etnolingvistik vaziyatga ma'lum bir etnoslarga suyanmagan (tegishli bo'lmagan) tillarni kirishi mumkin emas. Biroq, mustamlaka tuzumidan qutilgan mamlakatlarda haligacha G'arbiy Yevropa tillari keng tarqalgan bo'lib, ular mamlakat hayotida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham G'arbiy Yevropa tillari avtohton (o'sha hududda kelib chiqqan) til sifatida til vaziyatini tahlil qilishda nazarda tutilishi kerak.

Etnolingvistik va til vaziyatlari o'rtasida yaqin aloqa va o'zaro ta'sir mavjud. Til vaziyati mamlakatda istiqomat qiluvchi ma'lum bir etnoslar yoki ba'zi bir guruh etnoslarining o'zaro muomalasida qo'llaniladigan til tuzulmalarini tashkil etadi. Ichki etnik muomala odatda bir emas, balki bir qancha til tuzulmalari (dialekt, sheva, adabiy tillar) yordamida amalga oshiriladi. Qisqa qilib aytganda, etnoslar orasida xizmat qiluvchi til tuzilmalari ham ijtimoiy- funksional differentsiatsiyaga uchraydi. Binobarin etnoslar orasida til vaziyati yuzaga kelib, ular mamlakatning til vaziyatining bir qismi hisoblanadi. Etnos orasidagi til tuzilmalarining ijtimoiy roli va mavqei uning etnik doiradan tashqariga chiqishi va keng ko'lamda foydalanishdagi rivojlanish istiqboli bilan bog'liqdir. Tilning etnik doiradan tashqariga chiqishi uning barcha shakllarini tarqalishini bildirmaydi, faqat boshqa etnoslar uchun aloqa vositasini bajarish uchun lozim bo'lgan bir shakli tarqalishini bildiradi. Shu bilan birga, tilning etnik doiradan tashqariga chiqishi tufayli uning funksional maqomi o'zgaradi, ya'ni til etnolingvistik vaziyat komponentdan davlatning yoki mintaqaning til vaziyati komponentiga aylanadi.

Undan tashqari, etnolingvistik va til vazitlari ikki tipda – bilingvizm yoki diglossiya shaklida shakllangan individual darajada namoyon bo'ladi.

**Birinchi tip (tur).** Etnolingvistik vaziyat sabab bo'lgan birinchi tip hududiy sabab yoki o'zaro aloqa bo'lgan, bilingvizm va diglossiya tashkil etadi. Bu turli etnoslar yoki dialekt umumiylikiga mansub odamlar bir hududda yashasa va ishlasa vujudga keladi. Bunday bilingvizm va diglossiya ko'pincha ikki tomonlama, ya'ni aloqadagi ikki guruh vakillari bir-birlarining til tuzilmalarini bilishsa va ulardan foydalanishsa sodir bo'ladi.

**Ikkinchi tip** ikki tillik va diglossiya – ijtimoiy hosil bo'lgan tip bo'lib, u bir hududda ikki guruhni birgalikda istiqomat qilishi natijasida emas, balki o'z hududlarida alohida yashaydigan, lekin o'zaro aloqalar o'rnatgan ijtimoiy guruhlar aloqasi natijasida shakllanadi. Mazkur ikki tillik tipi ikki xususiyatga ega. Birinchidan, ular kamdan-kam holatda butun bir umumiylikni qamrab oladi, o'z faoliyatiga ko'ra, o'zaro etnik va o'zaro dialektik muomala bo'yicha bog'liq bo'lgan a'zolarida turg'un hisoblangan va shakllangan. Ijtimoiy belgilangan bilingvizm va diglossiyaning ikkinchi xususiyati – bolaligida ona tilini bilgan odam ikki tillik aloqa tufayli hududiy shakldadagi ikkinchi tilni emas, balki bu tilning yozuv-adabiy shaklda ham bilib oladi.

## Til vaziyatining tiplari (turlari)

Yuqorida aytib o'tganimizdek, funksional taqsimlangan tillar tizimi va ularning mavjud shakllari (adabiy til, dialekt, jargon va h.k.) til vaziyati deb ataladi. Til tuzilmalari qancha va qaysi muomala sohalarida ishlatilishiga qarab ular a) o'zaro etnik yoki umumdavlat; b) mintaqaviy (mamlakatning ma'lum bir qismida qo'llaniladigan); v) mahalliy (o'zaro etnik yoki sheva guruhlari orasida muomala vasitasi hisoblangan) qismlarga bo'linadi. Kasb-hunar til tuzilmalari (jumladan, ilm-fan tili) va ma'lum bir din uchun xizmat qiladigan marosim, urf-odat tillariga ham ajralishi mumkin. Quyidagi til vaziyatlari tip (tur)lariga ajraladi:

**Birinchi tipda** rasmiy tan olingan va hali rasmiy tan olinmagan makrovositachi hisoblangan avtohton tillar (ya'ni, o'zaro etnik muomala uchun qo'llanilgan til) til vaziyatlarida birlashadilar. Bu tillar mazkur davlat hududida yoki biron bir etnos tilining butun mintaqada o'z-o'zidan tarqalishi natijasida yuzaga kelib, u asosan, o'zaro etnik iqtisodiy aloqalarni tiklanishi sababli vujudga keladi. Til vaziyatining bu tipi til-makrovositachisining tarqalish darajasi bo'yicha bir qancha turda namoyon bo'ladi.

A) Agar ustunlik qiluvchi etnosning makrovositachi rolini bajaruvchi til bu rolga talabgor bo'lgan boshqa avtohton til bo'lmasa til vaziyatlari hisoblanadi.

B) Agar til-makrovositachi biron bir yirik etnos tili bilan to'g'ri kelsa til vaziyatlari hisoblanadi. Mazkur turdagi til vaziyatlarida ba'zan makrovositachi sifatida yirik miqdordagi etnos tili birlamchi bo'lmasligi mumkin. Ushbu tipning til vaziyatini ajralmas komponenti sobiq mustamlakachi davlat tili hisoblanadi. Funksionallik nuqtai nazaridan avtohton makrovositachi va G'arbiy Yevropa tili teng emas.

V) Til-makrovositachi sifatida aholining ozchilikni tashkil qiluvchilar tili faoliyat olib boruvchi mamlakatlardagi til vaziyatlari.

Birinchi tipdagi til vaziyatlariga turg'unlik xos. Ularda ozmi ko'pmi miqdorda til-makrovositachi mavqega ega bo'ladi. Lekin ularni mutloq barqaror deb aytolmaymiz. Hozirgi vaqtda avtohton tillarning rolini yanada oshib borishi kuzatilmoqda.

Til vaziyatining **ikkinchi tipida** sobiq mustamlakachi davlat tili yagona makrovositachi hisoblanadi. Bu tipdagi vaziyatning mavjudligi asosan mustamlakachilik natijasi hisoblanib, imperialistik bo'linishda etnik chegaralar e'tiborga olinmagan, to'g'ridan-to'g'ri mustamlakacha boshqaruvi tufayli bu davlatdagi barcha etnoslar uchun majburan mustamlakachi davlat tili joriy

etilgan. Avtohton tilning tarqalishi amaliy jihatdan rasmiy muomaladan chiqarilgan. Shunday qilib, sobiq mustamlaka davlatlarida butun davlat bo'yicha qo'llaniladigan avtohton til yo'q bo'lgan.

Mamlakatdagi til tuzilmalarining tarqalishiga ta'sir etuvchi etnik omillar va jarayonlardan tashqari, qator boshqa omillar ham mavjud bo'lib, ular til vaziyatlariga bevosita ta'sir etadi va ularni o'zgarishiga sabab bo'ladi.

1) Bunday omillarga birinchi navbatda, til siyosati, ya'ni davlat, jamiyat, partiya tomonidan til vaziyatini saqlash yoki o'zgartirish uchun, mavjud lingvistik mezonlarni barqarorlashtirish yoki o'zgartirish uchun qo'llanilgan chora-tadbirlar tizimi kiradi. Har qanday davlatda til siyosati birinchi navbatda o'zaro etnik muomala tilni tanlash va tasdiqlashga duch keladi. Bunday tilning muammolarida bir qancha jihatlar mavjud.

**Birinchi** – kommunikativ. Ko'p millatli har bir davlatda muomala vositasi uchun o'zaro milliy va umumdavlat tiliga talab mavjud bo'lib, bu o'rinda, mazkur davlatda istiqomat qiluvchi barcha xalqlarning tillaridan foydalanish imkoni yo'q. Shuning uchun ham xorijiy Sharq davlatlarida eng qulay yo'l bir tildan foydalanishdir. Bunday tilning tanlanishi milliy raxbariyatni tashkillashtirish, iqtisodiyot, jamiyat va ommoviy axborotni boshqarish, milliy kadrlarni tayyorlash lozimligi bilan bog'liq. Shuning uchun ham mamlakatdagi juda ko'p etnoslar so'zlashadigan o'zaro etnik vazifani bajarishi mumkin bo'lgan mavjud bir qancha avtohton tillar orasidan etnik hudud doirasidan tashqarida ancha keng tarqalgan til tanlanadi. Shu bilan birga, bu ancha keng tarqalgan tillar ko'p yillar davomida mustamlaka boshqaruvi, ta'lim, zamonaviy ilm-fan hamda rasmiy ravishda o'zaro etnik muomala sifatida foydalanilgan biron bir G'arbiy Yevropa tili bilan raqobatda bo'ladi. Shu sababli, norasmiy muomala doirida mavjud bo'lib, eng keng tarqalgan avtohton tillar ham sobiq mustamlaka davlatlari tilini tezda o'zgartirish uchun lingvistik jihatdan to'liq tayyor bo'lmagan. Faqat ba'zi bir davlatlarda (SRV, Indoneziya Respublikasi) G'arbiy Yevropa tilini muomaladan butunlay chiqarib tashlashga muayassar bo'lganlar.

Bu muammoning **ikkinchi jihati** – siyosiydir. G'arbiy Yevropa tili o'rniga umumdavlat va o'zaro milliy muomala uchun avtohton tilni tanlash mamlakat raxbariyatining til sohasidagi izchillik va qat'iylik bilan mustamlaka qoldiqlarini yo'q qilish bo'yicha o'tkazgan chora-tadbirlari avvalo, hukumat tepasidagi sinf, ijtimoiy tabaqa va guruhlar manfaati orqali belgilanadi. Shunday qilib, mazkur masalani hal etilishi demokratik (aksariyat aholi manfaati bo'lgan) va demokratik bo'lmagan (faqat yuqori sinf manfaatlariga javob beradigan) turga (tilga) bo'linadi. O'zaro etnik muomala uchun avtohton tilning tanlashni siyosiy ahamiyati avvalo, bu tilning milliy masala bilan bog'liqligi bilan chambarchas bog'liq. Ko'pgina etnoslarning birini tili rasmiy ravishda davlat tili darajasida ishlatilishi, bu tilning tarqalishi hamda o'zaro etnik aloqalarda qo'llanilishining uzoq muddatiga qaramasdan, bu til ona tili hisoblangan etnosni imtiyozli o'ringa

qo'yadi. Boshqa etnoslar esa o'zlarini kamsitilgan sezadilar va mana shu sababdan etnik ziddiyatlar kelib chiqadi. Shuning uchun ham o'zaro etnik muomala uchun til tanlanganda etnik xolislikka (betaraflik) katta ahamiyat berish lozim.

Bu muammoning **uchinchi** jihati – g'oyaviy (mafkuraviy)lik. Til tanlash va mafkuraning o'zaro aloqasi, avvalo, u yoki bu din tilini bu o'ringa qo'yilishi bilan namoyon bo'ladi. (Sobiq Buyuk Britaniya Hindistoni Pokiston va Hindistonga bo'lingandan so'ng, Pokiston islom davlatining rasmiy tili musulmonlarning tili sifatida urdu tili deb e'lon qilingan. Chunonchi, bu til aholining kam sonli qismining ona tili bo'lgan. Hindistonning davlat tili sifatida hindiy tilining tanlanishi, ehtimol buddaviylik (induizm) tili sifatida e'tirof etilgandir).

Umumdavlat va o'zaro etnik muomala uchun til tanlashdagi mafkuraviy ta'sir ikkinchidan, mamlakatda istiqomat qiluvchi etnoslarni madaniy-siyosiy birlashtirish, fuqarolik tuyg'usini tatbiq etish, millatparstlik, mintaqaparastlikni shubha ostida ushlab, separatizmni kelib chiqishini to'xtatish uchun mamlakatdagi hukmron doiralar odatda, biron bir avtoxton tilni tanlashga urinishlarida namoyon bo'ladi. Aynan shu maqsad yo'lida, mustaqil bo'lgan ko'p millatli davlatlarda "yagona davlat – yagona millat – yagona milliy til" mafkurasi tashviq-targ'ib etiladi. Biroq, boshqa tomondan esa, ichki davlat integratsiyasida ustunlik qiluvchi etnosning tilini qo'llanilishi bu etnosda shovinizm ruhini vujudga keltirib, etnik etnoslar bo'ysunish holatida bo'lib qoladi va keyinchalik ularning huquqi poymol etiladi va bu narsalarga javoban millatparastlik kayfiyatlar va separatistik g'oyalar kuchayishi kelib chiqadi (Bunga yorqin misol: Sharqiy Pokistondagi bengallarni milliy mustaqillik uchun harakati va uning natijasida tuzilgan Bangladesh davlati). Qator davlatlarda hatto, "milliy ittifoq tili" deb hisoblangan G'arbiy Yevropa tillarning saqlanib qolishi ham aynan, o'zaro milliy ziddiyatlarni kelib chiqishi uchun xavf tug'dirmoqda.

Umumdavlat tilini tanlashning **to'rtinchi** jihati – ijtimoiylik. Mustaqil bo'lgan davlatda aholining juda kam qismi G'arbiy Yevropa tillarini biladi. Chunonchi, G'arbiy Yevropa tilidan asosan mulkdor sinf va ziyoli oqsuyaklar foydalanadilar. Bu tillarni aholi o'rtasida tarqalishi uchun o'n yil, balki bir qancha avlodlar hayoti kerak bo'ladi. Shu munosabat bilan qoloqlik, ommoviy savodsizlikni yo'qotish muammosi dolzarb bo'lib qolib, ilmiy-texnika inqilobi sharoitidagi yo'nalish G'arbiy Yevropa tillari yordamida hal qilinmay qolib ketadi. Vujudga kelgan ahvolda avtoxton tildan foydalanish uchun urindilar (Buning uchun Osiyo davlatlarida boshlang'ich va o'rta maktablarda, mahalliy radio va televizion ko'rsatuvlarda foydalanish uchun yozuv (alifbo) tashkil etiladi). G'arbiy Yevropa tillari mahalliy oqsuyaklarning muomala vositasi bo'lib qolganligi uchun ular va keng xalq ommasi o'rtasida bo'shliq hosil

bo'lishiga olib keladi. G'arbiy Yevropa tillari ko'pincha mulkdorlar tili sifatida tavsiflanadi.

Shunday qilib, umumdavlat va o'zaro etnik muomala uchun tilning tanlanishi o'zaro ta'sirda bo'lgan omillar yig'indisini hisobga olish bilan bog'liq bo'lib, o'z navbatida, mamlakatdagi etnolingvistik, ijtimoiy-siyosiy, milliy vaziyatga aksincha ta'sir etadi.

O'zaro etnik muomalada til tanlash va tasdiqlashning ikkinchi til muammosi eng avvalo, rasmiy va o'zaro etnik muomala uchun taklif etilgan yoki etilayotgan avtohton tillarning normallashtirish va zamonaviylashtirish hisoblanadi. Birinchi navbatda, bu tillarning lug'at tarkibini yangi leksika (so'zlar) va ilmiy-texnik atamalar bilan to'ldirish vazifasi qo'yilib, shunda, bu til to'liq darajada unga yuklatilgan funksional va kommunikativ vazifani bajaradi. Bunday tillarning, eng avvalo leksik tarkibini zamonaviylashtirishga qaratilgan umumiy yo'nalishi mustaqil davlatlarda mazkur jarayonning maqsad va turli yo'nalishi tufayli bir xilda qabul qilinmaydi. Muvofiqlik yo'nalishi bilan bir qatorda leksikani to'ldirish uchun barcha manbalardan (xalq so'zlashuv, eski yozuv hamda shu bilan birga, mustamlakaga qadar bo'lgan davr tilidan, G'arbiy Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan resuslar) foydalaniladi va bunda puristik yo'nalish yorqin ifoda topganligi ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, ba'zi davlatlarda leksikani to'ldirish til siyosati ta'sirini boshqaruvchi organlardan erkin holda yuz beradi va buning natijasida avtohton davlat tillarida Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar oqimi ko'payib ketadi, chunki bu so'zlarning aksariyatini keragi ham yo'q, chunki bunday so'zlarni anglatadigan milliy ekvivalentlar mavjud (Janubiy Koreyada 3 mingdan ortiq amaerikalashtirilgan so'zlar ishlatiladi).

Til uchun puristik faoliyat ahamiyatini baholash ikki xildir. Tilni zamonaviylashtirishning birinchi davrida bu faoliyat muhim ijobiy rol o'ynaydi, chunki bu faoliyat tilning xususiy resurslaridan imkoni boricha foydalanishni ta'minlaydi. Lekin bu resurslar cheksiz emas, tilning yangi vazifasi uning leksikasini doimiy to'ldirib turishni talab etadi, shuning uchun keyingi etapda boshqa tillardan to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita kalka (so'z yoki iborani bir tildan ikkinchi tilga so'zma-so'z, aynan tarjima qilish) qilish muqarrar hisoblanadi. Shunda purizm til rivojlanishining to'xtatuvchisi (tormozi) bo'lib qoladi.

Zamonaviy davrda til siyosati umumdavlat va o'zaro etnik muomala uchun til tanlashdan to amaliy normallashtirish va so'z ijodi faoliyatigacha bo'lgan turli mushkul muammolarni hal etishni ishlab chiqmoqda. Til siyosati davlatning ichki siyosati, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-mafkuraviy jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularga aksincha (teskari) ta'sir etishga qodir.

## **IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI**

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR**

### **Mavzu: Eronda etnolingvistik vaziyat**

Guruh uch qismga bo'linadi va har bir kichik guruhga o'rganish uchun material beriladi. Qabul qilingan materialni o'rganish va muhokama qilishdan so'ng, har bir kichik guruh materialning o'z qismining taqdimotini o'tkazadi. Barcha taqdimotlarni tugatgandan so'ng, har bir guruh materialning o'ziga tegishli qismi bo'yicha savollar beradi, ularga javob oladi va boshqa kichik guruhlar ishtirokchilarining javoblarini baholaydi.

### **Birinchi kichik guruh uchun material.**

Eronda qariyb 80 million kishi yashaydi. Ko'pchilik o'zlarini forslar bilan birlashtirsa-da, Eronda bir necha o'nlab etnolingvistik va qabilaviy guruhlar yashaydi, ular birgalikda aholining uchdan biridan ko'pini tashkil qiladi. Hozirda aholini ro'yxatga olish har o'n yilda bir marta amalga oshiriladi, ammo shaxsning til yoki etnik xususiyatlari kamdan kam hisobga olinadi, faqat diniy mansubligi qayd qilinadi. Din, til va etnik guruhlar doimiy ravishda bir-birining ustiga chiqib turishi va turlicha bo'lishiga qarab, statistika ko'pincha xilma-xillikning mohiyatini anglay olmaydi. Etnik jihatdan Eron mintaqadagi eng qiziqarli mamlakatlardan biridir. Eron Islom Respublikasi - ko'p millatli mamlakat, etnik va tillarning xilma-xilligi bo'yicha dunyoda 16-o'rinni egallaydi. Milliy ozchiliklarning vakillari mahalliy aholining muhim qismlarini tashkil etadi, ularning aksariyati Eron hududida tubdan istiqomat qiladilar yoki uzoq vaqt davomida shu erda yashaydilar. Katta ozchiliklarga birinchi navbatda ozarbayjonlar kiradi (Forslardan keyin ikkinchi o'rinda Eron aholisi, turli taxminlarga ko'ra, aholining 16% dan 40% gacha), keyin kurdlar (5% dan 10% gacha), balujilar va turkmanlar juda muhim anklavlarga ega. ... Kichik ozchiliklar - ossuriyaliklar, armanlar, yahudiylar, arablar va boshqalar.

### **Mavzuni o'zlashtirish nazorat qilish uchun savollar:**

1. Eronda necha million kishi yashaydi?
2. Eron aholisining aksariyati o'zlarini qanday bog'laydi?
3. Eronda aholini ro'yxatga olishda nimalar hisobga olinadi?
4. Eron etnik guruhlar va tillarning xilma-xilligi jihatidan dunyoda dunyoda qanday o'rinni egallaydi?
5. Qaysi etnik guruhlar katta ozchiliklarga mansub?

### **2-kichik guruh uchun material.**

Modernizatsiya va globallashtirish mahalliy tillarga salbiy va ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Odatda, til - bu umumiy tushunilgan haqiqatlarni avloddan avlodga o'tkazish usuli, ammo aralash nikohlar va urbanizatsiya kabi hodisalar bu haqiqatlarni yo'q qiladi va ular bilan til yo'q bo'lib ketadi. Fors tili "qishloq" tilining o'rnini egallaydi va aholining yangi qatlamlariga kirib borish ko'pincha odamlarni assimilyatsiya qilish uchun ijtimoiy "me'yorlar" ga rioya qilishga



majbur qiladi. Eslatib o'tamiz, mamlakat janubi-g'arbiy qismida yashovchilar o'zlarining dominant bo'lmagan madaniyatga mansubligi ularning hayot sifatiga qanchalik salbiy ta'sir ko'rsatayotganini his qilishadi. Neft zaxiralariga boy mintaqa markaziy hukumat tomonidan nazorat qilinadi, bu esa mahalliy aholiga tabiiy resurslardan hech qanday foyda olishga imkon bermaydi. Aholi ta'lim olish va ish bilan ta'minlashning teng huquqliligi uchun kurashishi kerak. Balujlar, arablar va ozarbayjonlar kabi boshqa ozchiliklar vaqti-vaqti bilan o'zlarining viloyatlari rivojlanishiga etarli miqdorda sarmoya kiritmaydigan va mintaqaviy avtonomiyalarni rag'batlantirmaydigan hukumatdan noroziligini bildirmoqdalar. Ko'pgina siyosiy va diniy islohotlarning rahbarlari, shuningdek, aholining intellektual qatlami ozchiliklar bilan Eronning mamlakat va millat sifatida ajralmas aloqasini milliy va xalqaro darajada identifikatsiyalash shakli sifatida tobora ko'proq anglashmoqda.

#### **Mavzuni o'zlashtirish nazorat qilish uchun savollar:**

1. Modernizatsiya va globallashuv tilga qanday ta'sir qiladi?
2. Tillarning yo'q bo'lib ketish omillari qanday?
3. Dominant bo'lmagan madaniyatga tegishli bo'lish hayot sifatiga qanday ta'sir qilishi mumkin?
4. Nima uchun, sizningcha, Eron hukumati tegishli viloyatlarning rivojlanishiga etarlicha mablag 'sarflamayapti va hech qachon mintaqaviy avtonomiyalarni rag'batlantirmayapti?

#### **3-kichik guruh uchun material.**

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aslida ozchilik aholi faqat Eronning adolatli siyosatida qatnashish imkoniyatini izlaydi, undan ajralib chiqmaslik va mamlakatdan ajralib chiqish uchun emas. Boshqa tomondan, islohotchilar, tarixiy jihatdan elita uchun saqlanib qolgan siyosatga kirishni kengaytirish orqali ozchiliklarni birlashtirishga urinmoqdalar. Yangi Prezident Ruhani an'anaviy tillarni o'qitishni qo'llab-quvvatlashga va etnik va diniy ozchiliklarga siyosatda va davlat ma'muriy darajasida faol ishtirok etishga imkon berishga va'da berdi. Xulosa qilib shuni ta'kidlaylikki, Eronning etnik, lisoniy va diniy xilma-xilligi Hindiston-Eron makonida mamlakatning dastlabki shakllanishida tarixiy ildizlarga ega. Zamonaviy Eronida uning birligi nuqtai nazaridan mamlakatning o'zi haqida ikkita ta'rif mavjud. Bir tomondan, Eron o'zining geografik chegaralarida turli xil madaniy meroslarga boy. Boshqa tomondan, mamlakatning barcha fuqarolari uchun hech qanday inklyuziv huquqiy siyosat mavjud emas, bu erda har kim o'z ona tili, dini va madaniyati bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lib, siyosatda ovoz berish huquqiga ega bo'ladi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Ko'p sonli tadqiqotlar ozchiliklar haqida nimani ko'rsatmoqda?
2. Islohotchilar ozchiliklarni mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotiga qanday singdiradilar?

3. Zamonaviy Eronda uning birligi nuqtai nazaridan mamlakatning o'ziga xos qanday ta'riflari mavjud?

**3 Mavzu. Islom inqilobiga qadar va keyin  
fors leksikasining shakllanishi va rivojlanishining  
o'ziga xos xususiyatitlari. Eronning uchta  
Akademiyasi faoliyati**

Guruh uch qismga bo'linadi va har bir kichik guruhga o'rganish uchun material beriladi. Qabul qilingan materialni o'rganish va muhokama qilishdan so'ng, har bir kichik guruh materialning o'z qismining taqdimotini o'tkazadi. Barcha taqdimotlarni tugatgandan so'ng, har bir guruh materialning o'ziga tegishli qismi bo'yicha savollar beradi, ularga javob oladi va boshqa kichik guruhlar ishtirokchilarining javoblarini baholaydi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin fors tili leksikasining rivojlanishi bir qancha, ko'pincha qarama-qarshi bo'lgan jarayonlar bilan tavsiflanadi va 1905-1911 yillardagi Eron inqilobi davridayoq boshlangan tilni kelajakda demokratiklashtirish sharoiti bilan belgilanadi. Tilning lug'at tarkibini ma'lum bir jihatdan o'zgartirish va uning tinmay o'sib borishi Erondagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ilm-fan va texnika taraqqiyotining tez sur'atlarda o'sishi, ilmiy-texnikaviy inqilobning ta'siri va nihoyat, maxsus muassasa va tashkilotlarning hamda madaniyat arboblari, adabiyotshunoslar, yozuvchilar, tilshunoslarning atamashunoslikdagi faoliyatining bevosita ta'siri natijasida yuz berdi.

Zamonaviy fors tili leksikasi turli xil uslubiy qatlamlari mavjud bo'lgan rang-barang manzarani o'zida namoyon etib, ular o'rtasidagi chegara ko'pincha ancha mujmal va noaniqdir. Yangi tuzilgan leksika sonini doimiy o'sishi faqat burungi vosita bilan yangi tushunchalarni ifoda etish zarurligi bilan emas, balki qator tashkilotlarning yorqin puristik harakatlari hamda aniq bir ziyolilar doirasining o'zlashtirilgan so'zlarni fors so'zlariga o'zgartirish va so'z ishlatish turg'un mezonlarining yo'qligi bilan ifodalanadi. Yana shuni qo'shimcha qilish kerakki, boshqa tillardan kelib chiqqan so'zlar miqdor jihatidan burungi fors so'zlaridan ustunlik qilgan.

Zamonaviy jarayondagi o'sha davrdagi leksika tarkibining shakllanishidagi muhim xususiyat – bu, so'zlashuv tilidagi so'zlar va frazeologizmlar, xalq-so'zlashuv (jonli) nutqi, yozuv (adabiy) nutqni keng qo'llanishidir. Buning natijasida esa keyinchalik adabiy til bilan xalq-so'zlashuv tilining yaqinlashuvi yuz bergan. Bunda birinchi navbatda, so'zlashuv tili va badiiy asarlaridagi personajlarning dialog shaklidagi nutqi, keyin adabiy asarlardagi muallif nutqi hamda matbuot va nashrlar.

XX asr boshidagi Eron inqilobi davridayoq so'zlashuv so'zlarini adabiy tilga kirib kelishi yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etib fors tili lug'at fondini har

tomonlama boyitish avval ham bo'lgan va hozirda ham davom etmoqda. Bu sohada S. Hidoyat, M.Jamolzoda, A.Dehxudo, S.Nafisiy, S.Chubak va boshqa shu kabi mashhur yozuvchilarning roli katta bo'lib, ular so'zlashuv leksikasini va oddiy xalq iboralarini o'z asarlari tiliga aylantirganlar.

Ma'lumki, teyron shevasini o'z asosida mujassam etgan fors so'zlashuv tili adabiy tildan eng avvalo fonetik va grammatik xususiyatlarga ko'ra, ba'zi so'z yasaladigan marfemalar hamda leksika tarkibining o'ziga ko'ra farq qiladi. So'zlashuv tilidan adabiy tilga turli xildagi ko'plab turg'un so'z birikmalari kirib kelgan bo'lib, ko'pgina so'zlashuv tilidagi so'zlar va frazeologizmlar adabiy tilda ham fonetik, ham semantik jihatdan shunchalik mustahkam o'rnashib qolganki, ba'zida ularni dastlabki oddiy nutqdan kelib chiqishni aniqlash qiyin.

Boshqa tomondan, adabiy til bilan xalq-so'zlashuv tilining yaqinlashish jarayoniga adabiy tilda kitobiy va arxaik so'zlarni (hozirgi tilda eskirib qolgan so'z, ibora va turli qo'shimchalar) ishlatishni qisqarishi ham sabab bo'lib, bu o'z o'rnida o'sha davr zamonaviy fors tili leksikasini shakllanishidagi o'ziga xos xususiyatlardan biri bo'lib qoldi. Asosan, turli xildagi murojaat, faxriy unvonlar va nutqda o'ziga xos ko'tarinkilik va dabdabalilik ko'rsatish uchun ishlatiladigan arab tilidan kelib chiqqan so'zlarni qo'llash ko'lami kamaydi. Rasmiy-hujjat va epistolyar (noma, xat so'zidan) uslublarda ko'pincha uchraydigan, ya'ni urushdan avval keng tarqalgan va taomildan sekin-asta chiqib borayotgan dabdabali baland parvoz iboralarning leksikadagi bunday qatlamni kamayishi va uning birliklarni qo'llashni qisqarishi til umumiy rivojlanishining demokratik yo'nalishini namoyon bo'lishidir. Lekin shunga qaramasdan, Eron jamiyatining ijtimoiy axloq-odobi natijasida yuzaga kelgan xushmuomalalik belgilari, yuqori lavozimdagi va diniy arboblarga murojaat qilishda yoki oddiy xushmuomalalik uchun, alohida epistolyar uslub rasmiyatchiligini saqlash maqsadida qo'llaniladigan turli unvonlarni tilda saqlanib qolinishi tilning leksik tarkibidan bunday xildagi so'z va so'z birikmalarini butunlay yo'qolib ketishiga to'sqinlik qiladi.

Zamonaviy tilda alohida matn va og'zaki ma'ruzalarda ko'pincha uchrab turadigan kitobiy va eskirgan so'zlarni saqlanib qolishi (yashovchanligi) ni tahlil qilishda Eron jamiyatining intilishi va madaniy rivojlanishi xususiyatlarini ham e'tiborga olish lozim. Gap shundaki, Eron aholisi o'rtasida mumtoz adabiyot, ayniqsa X-XV asrlar she'riyati katta shuhrat qozongan bo'lib, unda hozirgi kun tili uchun juda ko'p arxaik mazmundagi so'z va iboralar mavjud. She'rlardagi ko'pgina parchalar shunchalik yaxshi tanishki, ular folklor iftixori sifatida qabul qilingan, ularni o'qimagan va xatto savodsiz odamlar og'zidan ham eshitish mumkin. Mumtoz adabiyotdagi ba'zi so'zlar va iboralar tilning yozma shkliga va badiiy asarlar tiliga kirib kelgan va ularning ba'zilari bir qancha bor og'zaki qaytarish natijasida tilda o'rnashib qolgan. Arxaizmlarning aksariyati leksika is'temoli tarkibiga kirmaydi va umuman zamonaviy tilning lug'at zahirasidan tashqarida qolgan.

Zamonaviy fors tili leksikasining shakllanishi va rivojlanishining eng muhim xususiyati juda ko'p miqdordagi yangi so'zlarni paydo bo'lishi deb hisoblanadi. Leksikaning, ayniqsa, uning terminologik qatlamini shiddatli o'sishi bir-birini istisno quluvchi ikki doira jarayonida yuz beradi: bir tomondan, katta xajmdagi yangi o'zlashtirilgan so'zlarni paydo bo'lishi, boshqa tomondan, G'arbiy Yevropa va arab tillaridan kelib chiqqan so'zlarni olib tashlab, yangi tuzilgan fors so'zlariga almashtirish.

G'arbiy Yevropa tillaridan fors tiliga o'zlashtirilgan ko'p xajmdagi so'zlarning kirib kelishi haqidagi masala ham eronlik, ham xorijiy tilshunoslarning ishlarida bir qancha bor yoritilgan. Boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarning kirib kelishi turlicha kechgan: ilmiy-texnik adabiyotlarni tarjima qilish, matbuot va nashr, xorijiy mahsulotlarni reklama qilish hamda ularning nomlari orqali va hakazolar. Yevropacha so'zlarni tarqalishiga Eronda turli sohalarida faoliyat olib boruvchi xorijiy mutaxassislar va xorijiy davlatlarda tahsil olib kelgan ilmiy kadrlar ham ta'sir etganlar. Ba'zi eronlik tilshunoslarning ta'kidlashlaricha, fors tili fonetika tizimi o'zlashtirilgan so'zlarni kirib kelishi uchun qulaydir.

Ikkinchi jahon urushidan keyin fransuz tilining o'rni ancha pasaydi, biroq fors tili leksikasida avvalgidek fransuz tilidan o'zlashtirilgan juda ko'p so'zlar saqlanib qoldi. Eronga AQShning iqtisodiy va siyosiy ta'sirini kuchayishi hamda boshqa ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlar bilan savdo aloqalarining kengayishi munosabati bilan ingliz tili keng tarqala boshladi: ingliz maktablari ochildi, qator oliy va o'rta o'quv yurtlarida darslar ingliz tilida olib borildi, radio va televideniya bo'yicha ingliz tilida eshittirishlar olib borildi. Ma'lumotlarga ko'ra, 70-yillarning o'rtalarida G'arbiy Yevropa tillarida nashr etiladigan 13 ta xususiy matbuot bosma nashrlaridan 10 tasi ingliz, 2 tasi fransuz, 1 tasi nemis tillarida chop etilgan.

Shuning uchun ham urushdan keyingi davrda so'zlarni o'zlashtirish fransuz tilidan ingliz tiliga yo'naltirildi va bu oxrigi o'n yillikda AQShning Erondagi siyosiy va iqtisodiy ta'sirini kuchayishi hamda boshqa ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlar bilan iqtisodiy, savdo va boshqa aloqalarni mustahkamlanishi bilan bog'liq. Ingliz so'zlari ilmiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va sport adabiyotlarida ustunlikka erishdi. Biroq, o'zlashtirish bo'yicha bir tildan ikkinchi tilga yo'nalishni o'zgartirgan bo'lsalar-da, Yevropa tillari orasida o'zlashtirish bo'yicha fransuz so'zlari avvalgidek ustunlikka egadir..

Evropalashgan so'zlar fors tilining leksik tarkibiga shu qadar turg'un va chuqur kirganki, ular so'z yasash jarayonlarida faol ishtirok etadilar (ayniqsa fransuz tilidan o'zlashtirilgan so'zlar), qo'shma fe'llarning ot qismi sifatida ishlatiladi.

Shu bilan birga, xorijiy so'zlarni asossiz o'zlashtirish holatlari ham uchraydi, ya'ni bunday holatlarda xorijiy so'zlarning keragi yo'q bo'lib, fors tilida استوديوم *estodiom* bu so'zlarni o'rni bosadigani mavjud bo'lib, ular o'sha

ma'no va mazmunni beradi. Masalan: fors tilidagi ورزشگاه *varzešgāh* so'zi bo'la turib استودیون *estodiyon* "stadion" so'zini ishlatilishi; اندازه *andāze* so'zi o'rniga sayz "xajm"; جام *jām* so'zi o'rniga کاپ *kāp* "kubok"; عنوان *onvān*, اسم *esm*, نام *nām* so'zlari o'rniga تیترا *titr* "sarlavha", "nom" so'zini ishlatilishi. Ko'p ishlatiladigan asossiz o'zlashtirilgan so'zlar qatoriga magazinlar, restoranlar, mehmonxonalar kinoteatrlarning xorijiy nomlari ham kiradi. "Keyxon" gazetasida (08.11.1978) yozilishicha, Tehrondagi magazin, restoran, mehmonxona va kinoteatrlarning taxminan 30-40 foizi xorijiy nomlar bilan atalgan. Xuddi shu gazeta nashrida ta'kidlanishicha, Eron tabaqaviy-kasaba korporatsiyasi barcha magazin egalari ikki oy muddat ichida magazinlarining xorijiy nomlarini fors nomlarini o'zgar tirishlari haqida qaror qabul qilgan va agar magazin egalari bu talablarni bajarmagan taqdirda ularning magazinlari yopilishi aytilgan.

Lisoniy aloqalarning kengayishi, to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirishni ko'payishi bilan birga kalka, ya'ni o'z leksik, so'z yasaliş va grammatik vasitalardan foydalangan holda boshqa tillarning leksiko-semantik va frazeologik modellari bo'yicha yangi so'z va iboralar tuzish usulini qo'llash ham faollashdi. Fors tilida kalkaning barcha asosiy turlari uchraydi: so'z yasovchi (زبانشناسی *zabānshenāsi* "tilshunoslik"; شهرسازی *shahrsāzi* "shahar qurilishi"; یخشکن *yaxšekan* "ledokol"; زیردریائی *zirdaryāyi* "suv osti kemasi"), frazeologik (بازار عمومی *bāzār-e 'omumi* "umumiy bozor" – inglizcha common market, fransuzcha marche commun; حساب جاری جاری *hesāb-e jāri* "joriy hisob" - inglizcha account current, fransuzcha compte courant; تب طلا *tab-e telā* "oltin tobi" – inglizcha gold fever; پول هوائی *pol-e havāyi* "havo ko'prigi" – inglizcha airbridge) semantik (پا *pā* "oyoq" inglizcha foot; مصلح *mosallah* "qurollangan" - fransuzcha arme; شبکه *šabake* "set" – inglizcha net; شاخه *šāxe* "shoh" - inglizcha branch).

Zamonaviy fors tili leksik tarkibini to'ldirishning asosiy manbai fors tilini o'zining so'z yasaliş hisoblanadi. Qadimgi so'z yasaliş usullariga affiksatsiya, yarim affiksatsiya, so'z qo'shish, transpozisiya, so'z birikmalarining leksikalashtirishlar kiradi. Bu usullarning hosildorligini tasdiqlovchi misol sifatida oxirgi yillarda keng tarqalgan کارائی *kārāyi* "natija beradigan", "foйда beradigan"; رسی پهمه *hameporsi* "referendum"; بازسازی *bāzsāzi* "tiklash", "qayta qurish"; گردهمائی *gerdhemāyi* "majlis"; نیروگاه *nirugāh* "elektrostansiya"; چشمگیر *čəšmgir* "ancha", "ahamiyatli", "sezilarli" va hakazolar. Qadimgi fors so'z yasaliş modellari rolining oshishi puristik g'oyalarni yanada o'sishiga ta'sir etib, uning asosida boshqa til ta'sirlaridan butunlay qutilishga intilish ko'zga tashlanmoqda.

Puristik g'oyalar avval kam ishlatilgan fors so'zlarini jonlantirish va faollashtirish uchun ham ta'sir etmoqda. Masalan: گزینش *gozineš* "saylov"; نشست *nešast* "majlis", "yig'ilish"; بینش *bineš* "nigoh", "dunyo qarash", "fikr"; کاربرد *kārbord* "foydalanish", "qo'llanish"; دیدگاه *didgāh* "nuqtai nazar"; رزمده

*razmande* “jangchi”, “askar”. Matbuot, radio va televideniya bu soʻzlar oʻzlashtirilgan sinonim soʻzlarga nisbatan koʻproq ishlatila boshlandi.

Yangi soʻzlarni yasash va oʻsha davr fors tilida kam uchraydigan maʼnoni anglatadigan soʻzlarning faollashuvi bilan bir qatorda soʻzlarning semantik xajmining kengayishi va ularning leksik maʼnosini oʻzgarishi jarayoni doimiy yuz berib bordi. Bu davrda baʼzi soʻzlar (asosan arab sinonimlari oʻrniga kelgan) yangi maʼno kasb etib, endi koʻpincha shu maʼnoda ishlatila boshlandi, masalan, *رأى زنى* *rāy-zani* “kengash”, “konsultatsiya” soʻzining yangi maʼnosi “fikr almashish”, “muhokama”, “kengash” (*مذاكره* *mozākere* – *مشاوره* *mošāvere*, *مشورت* *mašvarat*, soʻzlari oʻrniga); *گزارشگر* *gozārešgar* “tushlarni talqin etuvchi” soʻzining yangi maʼnosi “sharhlovchi” (korrespondent, reporter) (*خبرنگار* *xabarnegār* oʻrniga nisbatan koʻproq ishlatildi); *جهانگردی* *jahāngardi* “dunyo kezuvchi”, “sayohatchi” soʻzining yangi maʼnosi “turizm” (*توریسم* *turism* soʻzi oʻrniga ishlatildi); *بنیادی* *bonyādi* “asosli”, “mustahkam” soʻzining yangi maʼnosi “asosiy”, “bosh”, “muhim” (*اصلى* *asli* - *اساسی* *asāsi* soʻzlari oʻrniga ishlatildi); *پیش نویس* *pišnevis* “qoralama yozuv”, “qoralama” soʻzining yangi maʼnosi “dastlabki matn” (shartnoma, bitimlar); *ماهواره* *māhvāre* “Oy yoʻldoshi” soʻzining yangi maʼnosi “yoʻldosh (Oy, Yer)”, “kosmik stansiya”.

Modellashtirilgan tuzilmalar (yasovchilar), yaʼni chegaralanga uygʻunlikka ega boʻlgan maʼlum bir tarkibiy-semantik modellar boʻyicha tuzilgan qator turgʻun birikmalarning yuqori darajada oʻsishi ham kuzatilmoqda. Shuni aytish kerakki, masalan, *مورد علاقه* *mowred-alāye* “qiziqtirishga molik”; *مورد نیاز* *mowred-alāye* “lozim”, “zarur”, “kerakli”; *اهل زبان* *ahl-e zabān* “til bilimdoni”; *اهل لغت* *ahl-e loyat* leksikolog”, “leksikograf”; *اهل فن* *ahl-e fan* “texnika sohasi mutaxassisi”, “texnik bilimdoni” va hakazo kabi ega tipidagi modellashtirilgan soʻz birikmalarining katta miqdori paydo boʻldi. Modellashtirilgan tuzilmalar orasida “ot qismi”- “feʼl” modeli boʻyicha tuzilgan feʼlli soʻz birikmalari alohida ajralib turadi. Oʻz hosildorligiga koʻra, bu modellar juda koʻp qoʻshma feʼllarni paydo boʻlishi uchun sabab boʻlib, ularning ot qismida yaqindagina Yevropa tillaridan oʻzlashtirilgan, masalan, *استرلیزه کردن* *esterlize kardan* “sterilizatsiya qilish” (zararsizlantirish); *سانسور کردن* *sānsur šodan* “senzuradan oʻtish”; *اونیزه کردن* *unize kardan* “ionizatsiya qilish” va hakazolar kabi qoʻllaniladi.

Eronda iqtisodiyotning turli sohalaridan va sanoatdagi tez suratlardagi oʻsish, Eronning sanoati rivojlangan davlatlar bilan savdo-iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarini faol ravishda kengayishi tufayli fors tili atamashunoslik leksikasini rivojlanishi ustida alohida toʻxtalib oʻtish lozim.

Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyingi dastlabki yillarda taʼlim, ilmfan, texnik, sanoat va savdoning barcha sohalarida atamalar yetishmasligi keskin koʻzga tashlandi. Bu esa oʻz navbatida mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va qator sohalar uchun lozim boʻlgan mutaxassis kadrlarni tayyorlashda qiyinchiliklar tugʻdirdi. Shuning uchun ham oʻz xususiy atamashunosligini

tuzish tilshunoslarning va Eronning har bir sohadagi mutaxassislarining muhim vazifalaridan bir bo'lib qoldi.

Fors tili atamashunosligini to'ldirish ichki resurslar hisobidan hamda xorijiy so'zlardan o'zlatirish orqali atamalar tuzish bilan amalga oshirildi. Chunonchi, yangi atamalarning tuzish bo'yicha olib boriladigan ishlarga rahbarlik qiladigan va shu bilan bir vaqtda ulardan foydalanishda ularning to'g'ri va qarama-qarshi tomonlarini kuzatib boradigan maxsus markazning yo'qligi tufayli atamalarni ijod etish bilan turli tashkilotlar va alohida shaxslar shug'ullana boshladilar. Undan tashqari, hukmron siyosiy doiralar hamda Eronning ba'zi ijtimoiy arboblari va olimlarining xorijiy atamalarni o'zgartirish uchun doimiy harakatlarni qo'llab-quvvatlashlariga qo'llanilayotgan atamalarning barqarorligi to'sqinlik qilgan va uning natijasida atamashunoslikni umumiy tartibga solish buzilib, biron bir buyum, voqea va hodisalarni anglatadigan juda ko'p dublet (ya'ni bir ma'noni anglatadigan turli so'zlar) atamalar vujudga kelgan. Fors lingvistik atamashunosligi bunga yorqin misol bo'la oladi. Ko'pincha turli asarlarda keng tarqalgan arab atamaları o'rniga bu asarlarda mualliflar yoki boshqa olimlar tomonidan tuzilgan yangi atamalar qo'llanilgan. Masalan, "fonema" so'zlarni anglatish uchun واج *vāj*, خوان *xān*, سوط *sut*, واك *vāk*; so'zlari, "fe'l" uchun فعل *fe'l*, کار وازه *zamānvāze*, کار وازه *kārvāze* so'zlari ishlatilgan va h.k.

50-yillarning boshida yangi atamalarning tuzish bo'yicha jiddiy ish olib borish bilan bir qatorda atama ijodiyoti faoliyatini tartibga solish bo'yicha dastlabki harakatlar qilindi. Universitetlar, vazirliklar va idoralarda maxsus hay'atlar tuzilib, atamashunoslik to'plamlari nashr etildi. 1950 yil aprelida Tehron universitetida Ilmiy atamashunoslik jamiyati ta'sis etilib, bu jamiyat o'z oldiga turli atamasferalarga taalluqli bo'lgan atamalarning har xil manbalarini yig'ish va ilmiy jamoatchilik bu atamalar bilan tanishib chiqib, ularning yaxshilarini tanlash vazifasi qo'yildi. Jamiyat faoliyatining natijasi sifatida o'zida 20 mingga yaqin atamalarni mujassam etgan ikki jildlik to'plam nashr etildi. Mazkur to'plam materiallari atama ijodiyoti ishlarini jonlanishi uchun ijobiy ahamiyat kasb etdi va shu bilan birga fors atamashunosligini tartibsizligi va turg'un emasligidan dalolat berdi, chunki ko'pgina buyum-narsalar, voqea va tushunchalar uchun to'rt-besh nom keltirilgan edi.

1964 yili Tehron universiteti rektori buyrug'iga binoan tibbiy atamalarni qayta ishlash va xorijiy tibbiy atamalarni yangi tuzilgan fors atamalariga almashtirish uchun hay'at tuzildi. Atamalar ijodiyoti uchun Eronning boshqa universitetlarida ham guruhlar tuzildi. 1968 yili harbiy atamashunoslikni tartibga solish va undagi xorijiy atamalarni yo'qotish uchun Eron harbiy vazirligi qoshida Armiya madaniyati oliy harbiy kengashi (شورای عالی فرهنگ نظامی) *šowrā-ye āli-ye farhang- nezāmi*) deb nomlanuvchi maxsus hay'at tashkil etilib, bu hay'at tarkibiga harbiy arboblari bilan bir qatorda eronlik mashhur lingvistlar ham kiritildi. Hay'atning asosiy ish faoliyati arab tilidan kirib kelgan atamalarni

qadimgi fors atamaları bilan almashtirish, bunda nafaqat butunlay yangi soʻzlar tuzish, balki leksemalardan anchadan buyon chiqib ketgan qadimgi soʻzlarni qayta tiklash koʻzda tutildi. Masalan, arab soʻzlari oʻrniga quyidagi yangi atamalar taklif etildi: تعرض *taaroz* “hujum” soʻzi oʻrniga أفند *āfand*; دفاع *defā* “mudofa” soʻzi oʻrniga دافندپ *padāfand*; حمل و نقل *haml-o-nayl* “transport” soʻzi ترابری *tarobari*; عضو *ozv* “aʼzo” soʻzi هموند *hamvand* va boshqalar.

Biroq, yangi atamalar keng koʻlamda qoʻllanilmadi, ularni asosan harbiy nashrlarda va rasmiy hukumat hujjatlarida arab tilidan kirib kelgan burungi atamalar qatorida uchratish mumkin. Baʼzi yangi atamalar idoralar nomlari tarkibiga kirdi, masalan: دانشگاه پدافند ملی *dānešgāh-e padāfand-e melli* “Milliy mudofaa akademiyasi”; وزارت راه و ترابری *vozārat-e rāh-o-tarābari* “Yoʻl va transport vazirligi”.

20-yillar boshidan 70- yillar oxiriga qadar qamrab olingan Paxlaviy sulolasining til siyosati fors tilini yagona rasmiy davlat tili sifatida majburiy joriy etilishiga yoʻnaltirilgan boʻlib, milliy kamchilikni tashkil etuvchilarga singdirish va din sohasida arab tilini belgilangan tartibdan chiqmasligi (bu til faqat qurʼon oʻqishda va masjidlarda vaʼzxonlik qilganda, diniy adabiyotlarda, boshlangʻich, oʻrta va oliy maxsus musulmon oʻquv yurtlarida qisman ishlatilgan) belgilab berilgan. Koʻpgina oʻn yilliklar davomida milliy kamchilikni tashkil etuvchi tillarni oʻqitish va oʻrganish taʼqiqlangan boʻlib, milliy madaniyat, xususan, adabiyotni (ozarbayjon, kurd va turkman tillarida faqat juda kam miqdorda badiiy adabiyot va folklor mavjud edi) rivojlanishi uchun toʻsqinlik qilingan, milliy tillarni ommoviy axborot vositalarda qoʻllash uchun har xil cheklamalar qoʻyilgan. Masalan, 70-yillarning oʻrtalarida 198 ta xususiy matbuot nashrlaridan faqat 4 tasi milliy, diniy kamchilik soʻzlashadigan (1 ta arman tilida, 2 ta arab tilida, 1 ta assiriya tilida) tillarda chop etilgan. Ozarbayjon, kurd, arab, beluj va arman tillarida olib boriladigan radio eshittirishlari asosan qoʻshni davlatlarga olib eshittirilgan. Faqat 1945-1946 yillar mobaynida, yaʼni fashistlar Germaniyasi magʻlubiyatga uchraganda va Erondagi milliy-ozodlik harakati oʻzining choʻqqisiga yetganda ozarbayjon va kurd tillari ular yashaydigan va soʻzlashadigan hududlarda rasmiy til sifatida joriy qilingan. Ozarbayjon va kurd tillarida oʻqitadigan maktablar ochilgan, bu tillarda kitob va matbuot nashrlari chiqarila boshlagan.

Milliy-diniy kamchilikni tashkil etuvchi, eng avvalo armanlarga nisbatan Eron hukmron doiralari ancha yumshoq munosabatda boʻlganlar, boshlangʻich arman maktablari faoliyat olib borib, ularda arman tili oʻrganilgan va oʻqitilgan, Isfagʻon va Tehron universitetlarida armanshunoslik boʻlimlari ochilgan, Tegʻrondan Tabrizga arman tilida eshittirishlar olib borilgan va matbuot nashrlari chop etilgan.

Paxlaviy sulolasining fors tiliga nisbatan boʻlgan til siyosati mamlakatning ichki millatparastlik siyosati orqali yorqin ifodasini topgan boʻlib, bu siyosatning asosida Eronning avvalgi ulugʻvorligini qayta tiklash, “buyuk fors



tilini tiklash" uchun uni boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlardan "tozalash" tomon yo'naltirilgan.

Sharqning ko'pgina davlatlari, xususan Eronning o'ziga xos mafkurasi yanada roli o'sib borayotgan klerikal aqidalar bilan chatishib ketganligi hisoblanadi. Din, uning aqidalari oraqali ko'pgina ijtimoiy, siyosiy, etnomadaniy hodisalar ko'rib chiqiladi va tahlil etiladi.

Sharqda jamiyat hayotiga dinning ta'siri ko'pincha din tili ta'siri bilan bog'liq, ya'ni mamlakatning avtohton tili muqaddas til bilan bog'liq. Sharqning muqaddasi tillari – arab, sanskrit va boshqa tillar aholi an'anaviy tarzda u yoki bu din e'tiqod qiladigan mamlakatlar tiliga doimo kuchli ta'sir etgan va etayapdi. Islomiy davlatlarda esa, ularni arabiyashtirish ham miqdoriy va ham sifat ko'rsatkichlariga ko'ra juda yuqori.

Biroq, muqaddas til sifatida arab tili maqomi oxrigi o'n yillarda katta o'zgarishlarga uchramoqda. Buni shu bilan izohlash mumkinki, dinni ma'lum bir jihatdan demokratiklashtirish yuz bermoqda, muqaddasi tilni bilmagan aksariyat e'tiqod qiluvchilarga moslashtirilmogda. Bunday vaziyatda siyosiy maqsadlar toza diniy maqsadlardan ustun kelmoqda.

Aynan shuning uchun ham fors tilini kerak bo'lmagan arabizmlardan tozalash uchun bir qanba bor harakatlar qilinmoqda. Bundan tashqari, bu davr Rizoshoh va Eronning hukumron doiralari tomonidan olib borilgan buyuk eroniy millatparastlik, shovinizm va paneronizm siyosatini kuchayishi bilan xarakterlanadi. Bunday siyosat ilg'or eronlik ziyolilari, ta'lim tizimidagi islohatlar, matbuot hamda o'sha davrdagi mamlakatning madaniy hayotidagi turli chora-tadbirlarga chuqur ta'sir etgan.

Agar zamonaviy fors tili leksikasi holatini dastlabki puristik faoliyat jarayoni bilan tavsif etadigan bo'lsak, unda juda ko'p arabizmlarni qayd qilishga to'g'ri keladi. Yevropa tillaridan kirib kelgan so'zlar haqida so'z yuritadigan bo'lsak, ularning so'z va so'z birikmalari asosini fransuz so'zlari tashkil etadi. Shunisi diqqatga sazovarki, xalqaro leksikadagi so'zlar fransuz belgilari bilan fors tiliga kirib kelgan.

Fors tilini demokratiklashtirish jarayoni paneroniy kuchga ega bo'lgan harakat bilan bir vaqtda "toza (sof, asl) fors tili"ni tuzishga kirishdi. Til islohatini amalga oshirish uchun loyiq bo'lgan maxsus davlat mahkamasi lozim edi. Taklif qilingan vazifalarni amaliy jihatdan joriy etish uchun 1935 yilda Rizoshohning maxsus farmoniga binoan Eron til va adabiyot akademiyasi (Farxangiston) tashkil etilib, unda til sohasidani millatparastlik va paneroniy g'oyalarni amalga oshirish ko'zda tutildi. Puroistik harakatlar doirasida fors tilidan turmush tarzida mustahkam o'rnashib olgan arab, turkiy va yevropa tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar sun'iy ravishda olib tashlandi va ularning o'rniga yangi tuzilgan yoki so'z va so'z birikmalarida faol qatnashidan chiqib ketgan qadimgi eroniy so'zlar qo'llanildi.

Farhangistonning faoliyati arabizmlarga qarshi qaratilgan edi. Aynan ular o'zgartirilishi kerak bo'lgan so'zlar ro'yxatining avvaliga qo'yildi. Bunday ro'yxatlar turli davlat muassasalari tomonidan tuzilgan bo'lib, ma'lum bir leksika qatlamini qamrab olgan edi. Bundan ish faoliyatiga o'sha yillari yirik olimlar, adabiyotshunoslar, jurnalistlar, turli sohalarda faoliyat olib boruvchi mutaxassislar jalb etilgan. U yoki bu ilm-fan sohasidagi atamalarni o'zgartirish bo'yicha hay'at va Shoh hukumati vazirliklariga ishlab chiqish uchun yuborilgan.

Yangi so'zlarni tuzishda ichki manbalarga katta e'tibor qaratilgan. Fors tilidagi boy sinonimlar, ko'p so'zlarning turli ma'nolari, yetarli darajada rivojlangan morfologiya ishtirokida neologizmlarni tuzish imkoniyatlari, shevadagi so'z va iboralardan foydalanish, yangi so'zlarni sun'iy yasash kabilar ancha kam muddatda lug'atni yangilash uchun yordam bergan. So'z ijodiyoti masshtabi haqida shunday ko'rsatkichlar mavjud: faqat Tehron oliy pedagogik instituti qoshidagi Farhangiston doirasida faoliyat olib borgan ilmiy atamalarning ishlab chiqish bo'yicha jamiyat 3 mingdan ortiq atamalarni taklif qilgan bo'lib, ulardan 400 tasi majburiy qo'llash kuchiga ega bo'ldi.

Mo'tadillik tarafdorlari faqat sinonimlardan ularning arab ekvivalentlarini olib tashlashni taklif qildilar. Boshqacha qilib aytganda, agar sinonim dubletida "asl forsiy so'z – arbizm" bo'lib ikkala so'z o'xshash bo'lsa, arab sinonimini sekin-asta olib tashlashni taklif qildilar. Eronda davlat til islohati dastlabki harakatlariga nisbatan ruhoniylarning yondoshuvi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, ular fors tilini arabizmlardan tozalashga nisbatan murosasiz mavqeni tanlashdi. Ruhoniylar muqaddas tilni keng ko'lamda ta'limning har bir davrida o'rganish lozimligi ta'kidlashdi. Arab tilining ijtimoiy maqomini tushib ketishi tufayli ularning musulmonlar orasida ta'sir doiralarini susayishi xavfi borligi ko'zda tutildi.

**1935-1941- yillardagi** Farhangiston faoliyatining sezilarli muvaffaqiyatlaridan biri – fors tilida dariy yoki tajik tillariga yaqin bo'lib ishlatilmaydigan qator so'z guruhlari vujudga keldi. Fors tili leksikasi rivojlanishining davlat tomonidan yo'lga qo'yilishi birinchi kompaniyasining umumiy xulosasini qisqa tarzda quyidagicha belgilash mumkin:

- asl grammatik materiallar bazasida tuzilgan ko'p miqdordagi neologizmlar tilga kirib keldi;

- o'zgartirilgan neologizmlar hisobiga katta miqdordagi o'zlashtirilgan so'zlar qo'llanishdan chiqarildi;

- avval ishlatilib kelingan, o'z semantik doirasida qisqargan so'zlar vazifasida o'zgarishlar bo'ldi.

Farhangistonning millatparastlik xarakterdagi faoliyati keng qatlamli taraqqiyparvar Eron jamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi, biroq uning avtohton materiallar asosida atamalarning tuzish, yangi leksikani tuzilishi bo'yicha qilgan katta ishi fors tili rivojida ijobiy rol o'ynadi. 1941 yilda

Farhangiston faoliyati to'xtatilgan bo'lsa-da, uning tilni ichki zahiralarga suyangan holda qurgan neologizmlashtirish negizi, atamashunoslik asoslari, o'zgartirilgan leksikalarni tanlashga nisbatan yondoshuvi kelajakda yana ko'p marotaba qo'llanilib kelindi.

### **Nazotar savollari.**

1. Ko'rib chiqilayotgan davrda tilning so'z boyligi o'zgarishiga nima sabab bo'ldi?
2. Ushbu davrda leksik neoplazmalar sonining ko'payishiga nima sabab bo'ldi?
3. Adabiy til bilan xalq og'zaki tilining yaqinlashishiga nima sabab bo'ldi?
4. Ushbu yaqinlashish qanday amalga oshiriladi?
5. Kitobga oid va eskirgan so'zlar va iboralar tilida hayotiylikni qanday izohlash mumkin?
6. Fors tilida so'z boyligining terminologik qatlamining o'sishi qanday bo'ldi? Til ichida qanday jarayonlar sodir bo'lgan?
7. Ko'rib chiqilayotgan davrda Evropa so'zlarini qarz olish jarayoni nimaga xos?
8. Tilning lug'atida puristik tendentsiyalar qanday aks etgan?
9. Ushbu davrda fors tilida terminologik leksika qanday yaratilgan?
10. Muddat yaratish faoliyatini soddalashtirish uchun qanday tashkilotlar tuzildi?

## **ERON TIL AKADEMIYASI FAOLIYATI**

### **2-kichik guruh uchun material.**

Eron tili Akademiyasini tuzishdan ilgari davr shunday xarakterlanadiki, bu vaqtda 40-yillar boshidagi holatiga nisbatan fors tili juda katta o'zgarishlarga uchragan.

Bu davrga qadar til va adabiyot Akademiyasi tomonidan taklif etilgan so'zlar bu tilda so'zlashuvchilar tomonidan ijobiy qabul qilinib, til leksik tarkibiga kirgan va o'zning yangilik elementlarini yo'qotib borgan. Zamonaviy fors tilini هواپیما *havāpeymā* “samolet”; ارتش *artes* “armiya”; آمار *āmār* “statistika”; دادرس *dādras* “sudya”; تیش *tabeš* “nurlanish”; استان *ostān* “provinsiya (viloyat)” va hakazo so'zlersiz tasavvur qilish qiyin bo'lib, bu so'zlar aynan Akademiya faoliyati natijasida tilda qo'llanila boshlagan. Bu davrda Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan so'zlarning oqimi hisobiga leksikani faol to'ldirish yuz berib, unda inglizcha so'zlar ustunlik qilgan, chunki bu davrda Eron ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlar (asosan AQSh) bilan yaxshi aloqada bo'lgan. Buni shunday izohlash mumkinki, yuqorida darajadagi bilimlar yangi tushunchalarni nomlash muammosini keltirib chiqargan va buning natijasida bir tildan ikkinchi tilga yangi tuzilgan so'zlarning kirib kelish jarayoni o'sgan.

Bunda so'zlar nafaqat o'zlashtirilgan, balki tabiiy ravishda xususiy neologizmlar tuzilgan. Kalka qilish, ya'ni ichki shakllarni, semantik tuzilishini,

tilning frazeologik birliklarini tuzish asoslarini hisobga olgan holda semantik, soʻz yasash va frazeologik darajada yangi lugʻat birliklarini tuzish keng quloqch yoydi.

Bu davrda fors tiliga kirib kelgan yangi leksikadan misollar keltiramiz: همه‌پرسی *hameporsi* – referendum, تشنجدائی *tašannožzedāyi* “keskinlikni yumshatish”, فوقرسانی *fowqresāni* “oʻta oʻtkazuvchanlik”, فوقرسانی *fowqresāni* “inflyatsiya”, جك *jek* “domkrat” (ogʻir yuklarni koʻtaradigan kran) va boshqalar. Bu davrda gibrid neologizmlar, yaʼni sof fors va oʻzlashtirilgan elementlar uygʻunlashgan soʻzlar keng tarqaldi. Bunday soʻzlarni paydo boʻlishi, oʻz oʻrnida boshqa til elementlarining chuqur kirib kelishini koʻrsatadi. Oʻzlashtirilgan elementlar asosan Gʻarbiy Yevropa va qisman arab leksemalarini namoyon etadi. Masalan: رپارتژپرداز *repārtažpardāz* “reportor” (fransuz tilidagi reportaje soʻzidan), هتلدار *hoteldār* “mehmonxona xoʻjayini” (ingliz tilidagi hotel soʻzidan), فیلمنامه *filmnāme* “ssenariy” (ingliz tilidagi film soʻzidan), گازرسانی *gāzresāni* “gazlashtirish” (fransuz tilidagi gaz soʻzidan), تفسیرنویس *tafsirnevis* “kommentator”, “tafsir qiluvchi” (arab tilidagi tafsir soʻzidan), نوطلب *nowtalab* “novator”, “yangilik ijod qiluvchi” (arab tilidagi talab soʻzidan) va h.k. yangi yasalgan soʻzlarining asosiy qismi ijtimoiy atamashunoslik sohasiga tegishlidir. Bu narsalar eng zamonaviy davr tilining asosiy rivojlanish yoʻnalishiga monand keladi, lugʻat tarkibi jamiyatning real ehtiyojlari bilan mos tushishiga olib keladi.

Shunday qilib, til materiallarini tahlil qilish shuni koʻrsatdiki, birinchidan, Farxangiston tomonidan taklif qilingan koʻpgina neologizmlar zamonaviy fors tilida faol xizmat qildi va uning leksika-semantik tizimining ajralmas qismiga aylangan. Ikkinchidan, tilda tabiiy ravishda soʻz ijodiyoti aniq namoyon boʻlib, xususiy (shaxsiy, aynan) fors neologizmlarining katta miqdori vujudga kelgan hamda gibrid neologizmlar ham vujudga kelib, ular kelib chiqish nuqtai nazaridan leksik innovatsiya elementlaridir. Nihoyat, oʻz atamalarini tuzishdan koʻra ancha samarali hisoblangan yevropalashgan soʻzlarning katta oqimining kirib kelishi jarayoni yuz bergan. Chunonchi bu soʻzlarsiz ham fors tili yordamida yangi tushuncha va hodisalarni soʻzlar bilan belgilash imkoniyati mavjud edi. Xuddi shuning uchun ham yangi Akademiyaning tashkil etish haqida qaror qabul qilingan.

1970 yil oxrida Muhammad Rizo Pexlaviy farmoniga binoan Eron til Akademiyasi taʼsis etilgan. Uning asosiy maqsadi fors tilini isloh qilish, boshqa tillardan kirib kelgan atamalarni sof fors soʻzlariga almashtirish edi. Agar ikkinchi Akademiya davrining siyosiy-mafkuraviy manzarasi haqida soʻz yuritadigan boʻlsak, u koʻp jihatdan oʻsha 30-yillar oʻrtasidagi manzara bilan oʻxshash boʻlib, unda ham millatparastlik toʻlqini, qadimdagi va hozirdagi Eron madaniyatining ustunligi haqidagi koʻplab bildirishlar, uning betakrorligi, oʻziga xosligi va mamlaktda shoh va xalq olib borayotgan “oq inqilob”ning maxobati ufurib turadi. Akademiyaning faoliyati Eronda rivojlanishning kapitalistik

yo'nalishi bo'yicha borib, ijtimoiy hayotni zamonaviylashtirish, diniy e'tiqodga bo'lgan ma'lum bir o'sishlar, adabiyot, san'atni zamonaviylashtirish va fors tilining tabiiy rivjlanishidagi yo'nalishni o'zgartirish sharoitida amalga oshirildi. Buning natijasida, bir tomondan, til Akademiyasi faoliyatiga "sof" fors tili g'oyalarini ilgari surgan burjua millatparastligi sezilarli ta'sir etdi, ikkinchi tomondan, fors tili islohatiga ancha teran va keng fikrli faqat puristik kompaniya talablarini amalga oshirish lozimligiga qarshi bo'lgan taraqqiyparvar yondoshuv tarafdorlari ta'siri ham sezildi. Shularga qaramasdan til Akademiyasi oldida turgan asosiy maqsad shunday ta'riflanadi: fors tilining avvalgi yuqori maqomini qo'llab-quvvatlash va hayotning barcha sohalari extiyojini qondirshga qodirligini tashviq qilish. Uning barcha faoliyatining markaziy vazifasi yana boshqa tillar orqali ifoda etilgan ancha dolzarb tushunchalar uchun fors ekvivalentlarini tanlash va qayta yasashdan iborat.

Mazkur muammo bilan to'rtta ilmiy-tadqiqot laboratoriyalaridan biri shug'ullanib, bu laboratoriyada leksika, grammatika, dialektologiya (shevashunoslik), va leksikografiya masalalari hal etiladi, so'zlarni tanlash bo'yicha laboratoriya Kengash, kutubxona, fonetik laboratoriya va kotibiyat bilan birga Akademiya tarkibiga kiradi. Undan tashqari Akademiyada ma'lum bir ilm-fan sohasiga tegishli (iqtisod, savdo, tibiyot, til, adabiyot va x.k. bo'yicha) mutaxassislariga ega 13 atamashunoslik guruhlarini tashkil etilgan. 70-yillar boshida Akademiya boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar o'rniga 6650 fors ekvivalent so'zlarni taklif etgan bo'lib, unga manba sifatida fors tilining ham adabiy, ham shevalardagi leksemalar va so'z yasovchi vositalar (hamda modellar) xizmat qildi.

Boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar o'rniga fors ekvivalentlarini tanlashda Akademiya nafaqat eronlik olimlarning, balki butun dunyo fors tili mutaxassislarining fikridan foydalanishga harakat qildi. Mana shu maqsad yo'lida Akademiya "Sizning taklifingiz qanday?" (پیشنهاد شما چیست؟ - *pišnehād-e šomā čist?*) nomi bilan kitobcha chop etib, uni ko'pgina davlatlarning eronshunos olimlariga yuborgan. Har bir kitobcha ilm-fanning bir yoki bir qancha sohalariidagi xorijiy so'zlarning birlashtirib, bir yoki bir qancha lug'at yoki ensiklopediyalar bo'yicha so'zlar ma'nosiga fors tilida izoh berilgan. Turli soha mutaxassislari xorijiy so'zlar o'rniga taklif qilgan fors ekvivalentlarni Akademiyaga yuborilishi kerak bo'lgan va u yerda bu takliflar Kengash tomonidan ko'rib chiqilgan. Kengash fikri bo'yicha e'tiborga loyiq bo'lib tanlangan so'zlar ommaviy matbuotda nashr etilishi lozim bo'lgan. Ikkinchi ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi – Fors so'zlari laboratoriyasi fors so'zlarini to'plash va tilning so'z yasash imkoniyatlarini ko'rsatib berish natijasida ilm-fanning har bir sohasi, san'at bo'yicha fors lug'atlarini tuzish hamda etimologik va onomastik sinonim lug'atlarini va fors tili to'liq lug'atini tuzish ko'zda tutildi. Eron hududida faoliyat olib boruvchi qadimgi va o'rta asr fors tillari va shevalari ilmiy tadqiqotlar laboratoriyasi juda ko'p lug'atlarni, ya'ni eroniy

shevalar lug'atlari, eroniy tillar va shevalarining to'liq lug'ati hamda qadimgi va o'rta asrlardagi fors tillari va shevalari grammatikasini tuzish ustida ish olib boradi. Nihoyat to'rtinchi ilmiy tadqiqot laboratoriyasi hozirgi zamon fors tili grammatikasi masalalari bilan shug'ullanib, ular o'z oldiga fors tilining tarixiy grammatikasi, zamonaviy fors adabiy tili grammatikani tuzishni maqsad qilib qo'ygan.

Yu.A.Rubinchikning ma'lumotiga ko'ra 1979 yil inqilobiga qadar davr mobaynida jami sakkizta kitobcha nashr etilgan, 20 ming xorijiy so'zlar, ya'ni asosan ingliz tilidan yoki internasional lug'at fondidan kirib kelgan so'zlar uchun 40 mingta fors ekvivalentlar taklif etilgan. Atamalarini o'zgartirish uchun chiqarilgan birinchi to'plam gaz sanoati atamalarini o'zida mujassam etgan bo'lib, u Eron milliy gaz kompaniyasi iltimosi bo'yicha tuzilgan.

